

## BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING MA’NAVIY TARBIYASINI SHAKLLANTIRISH MAZMUNI

Mo‘minova Marxabo Karomatillo qizi

Guliston davlat universiteti

2-bosqich magistranti

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma’naviy tarbiyasini shakllantirishning mazmuni, mavjud holati va ilm kishillarining mazkur mavzu yuzasidan keltrigan fikrlari jamlangan.

**Kalit so‘zlar:** ma’naviyat, boshlang‘ich ta’lim, madaniyat, konsepsiya, diniy ta’limot, qadriyat, ruhiy poklik, vijdon, axloq, falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, islohotlar, tizim

**Аннотация:** В данной статье обобщены содержание формирования духовного воспитания учащихся начальных классов, современная ситуация и мнения ученых по данной теме.

**Ключевые слова:** духовность, начальное образование, культура, концепция, религиозное учение, ценность, духовная чистота, совесть, этика, философские, правовые, научные, художественные, реформы, система.

**Abstract:** This article summarizes the content of the formation of the spiritual education of elementary school students, the current situation, and the opinions of scientists on this topic.

**Key words:** spirituality, primary education, culture, concept, religious teaching, value, spiritual purity, conscience, ethics, philosophical, legal, scientific, artistic, reforms, system

Ma’naviyat o‘zi – inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha bo‘lib ,u kishilarning falsafiy,huquqiy ,ilmiy ,badiiy ,axloqiy va diniy tasavvurlarni o‘z ichiga oladi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov shunday ta’rif berganlar: <sup>1</sup> “Ma’naviyat – insonni ruhan poklanishga, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, inson ichki dunyosini, irodasini baquvvat iymon-e’tiqodini butun qiladigan, vijdoni uyg‘otadigan kuch. Insonning barcha qarashlarining mezonidir” .

<sup>1</sup> Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat –yengilmas kuch”. T.: “Ma’naviyat” nashriyoti. 2008 y 10 b

Yangi islohotlar amalga oshirilib rivojlanayotgan bir davrda mamlakatimiz miqyosida ta'lim-tarbiya sohasiga qaratilayotgan e'tiborni alohida ta'kidlamoq joiz. Tarbiya va ta'limni bir-biridan alohida ajratib bo'lmaydi, bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, uzlusiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi. Bizning ertangi kelajagimiz bunyodkorlari bo'lgan yoshlarga bilim, ko'nikma va malakalarini egallashga nazariy va amaliy ko'maklashish ertangi yanada farovon yashashimiz uchun katta zamin ho'zirlaydi. Biz yangi O'zbekistonda yangi g'oyalari va rejalar bilan hamohang qadam qo'ymoqdamiz. Bu ildam qadamlarimiz yaqin kelajakda o'zining istiqbolli natijalarini ko'rsatadi. Jamiyatimizdagi keng qamrovli islohotlarda ham o'zining samarasi ko'rsatmoqda.

Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi 1059-sun "Uzlusiz ma'naviy madaniy tarbiya Konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq, Uzlusiz ma'naviy madaniy tarbiya Konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari rejasi ustuvor yo'nalishlari belgilangan. Konsepsiyaning maqsadi — yosh avlodda mustaqil va baxtli hayot uchun zarur ijtimoiy malaka hamda fazilatlarni yoshiga mos, bosqichma-bosqich shakllantirishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish, uni amalda ro'yobga chiqarish uchun quyidagi **vazifalarni** amalga oshirish talab etiladi<sup>1</sup>:

- ma'naviy-axloqiy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish;
- tarbiyaning homiladorlik davridan boshlanib voyaga yetgunga qadar davom etadigan, tadrijiylik va uzlusizlik tamoyillariga asoslangan metodikasini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish;
- bola tarbiyasida milliy va zamonaviy pedagogikaning ilg'or yutuqlaridan samarali foydalanish;
- tarbiyalanuvchilar bilan birga tarbiyachilarning ham bilimi va malakasini muntazam oshirib borish;
- ma'naviy tarbiyani shakllantirishda oila, mahalla va ta'lim muassasalari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o'rtaida samarali hamkorlik mexanizmini yo'lga qo'yish;
- ma'naviy tarbiyaning tadrijiy rivojlanish va uzlusizlik tamoyillariga asoslanishi.

<sup>1</sup> Uzlusiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-sun qarori (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi 03.01.2020-y., 09/20/1059/4265-sun, 19.06.2020-y., 09/20/391/0777-sun)

**Unga ko‘ra,** ayniqsa yoshlar tarbiyasi bilan bog‘lik vazifalarni samarali amalga oshirish, ularni tinch-osoyishta hayot uchun eng zarur tayanch kompetensiyalar bilan ta’minlash; ma’naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish; tarbiya jarayonida uzluksizlik, uzviylik tamoyillariga tayangan holda avvalo, onaning homiladorlik davrini to‘g‘ri tashkil etish, go‘daklar va bolalarni ma’naviy tarbiyalash, homiladorlik davridan boshlab 30 yoshgacha davom etadigan uzluksiz ma’naviy tarbiyani amalga oshirishda ota-onasiga, tarbiyachi, o‘qituvchi, uzluksiz ta’lim muassasalari va mahalla jamoatchiligining o‘zaro samarali hamkorligi mexanizmini ishlab chiqish va hayotga joriy etish bo‘yicha asosiy yo‘nalishlarni belgilash kabi bir necha ustuvor yo‘nalishlar ko‘rsatilgan.

**Uzluksiz ma’naviy madaniy tarbiya Konsepsiysi quyidagi bosqichlarni qamrab oladi<sup>1</sup>:**

**birinchi bosqich** — oilalarda (ikki davr asosida: birinchi davr — homila davri, ikkinchi davr — bola tug‘ilganidan 3 yoshgacha bo‘lgan davr);

**ikkinchi bosqich** — maktabgacha ta’lim 3 — 6 (7) yoshgacha bo‘lgan davr;

**uchinchi bosqich** — umumiy o‘rta ta’lim tizimida (ikki davr asosida: birinchi davr — 7 (6) — 10 yosh boshlang‘ich sinf, ikkinchi davr — 11 — 17 yosh o‘rta va yuqori sinflar);

**to‘rtinchi bosqich** — ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan yoshlar, shuningdek, o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari tizimida (ikki davr asosida: birinchi davr — o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim bilan qamrab olinmagan, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan yoshlar -17-30 yosh, ikkinchi davr-o‘rta maxsus kasb-hunar, oliy ta’lim muassasalarining o‘quvchi-talabalari 15 — 22 (24) yosh).

Bizning tadqiqot mavzuyimiz Konsepsiyaning uchinchi bosqichni birinchi davri – 7(6) – 10 yosh boshlang‘ich sinflarni o‘z tarkibiga qamrab oladi. 1-4-sinf o‘quvchilarida ma’naviy madaniy tarbiyaindikatorlarini shakllantirish bugun kunda ta’lim muassasalarining rahbariyati, ta’lim beruvchilar mas’uliyatini yanada oshiradi. Ularga yuklangan vazifalarning samaradorligini oshirishda tinmay mehnat qilish vazifasini yuklaydi. O‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan berilayotgan BKMLarni sidqidildan o‘rganib boradilar. Ta’lim berish uchun avvalo ta’lim beruvchida puxta bilim, yuqori malaka, kasbiy va hayotiy tajribalarga ega bo‘lgan mahorat hamda kompetentlik bo‘lishi lo‘zim. O‘qituvchi o‘quvchilarni **tarbiyalashda** quyidagilarni hisobga olishi kerak<sup>2</sup>:

<sup>1</sup> Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son qarori (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi 03.01.2020-y., 09/20/1059/4265-son, 19.06.2020-y., 09/20/391/0777-son)

<sup>2</sup> R.Mavlonova, N.Vohidov, N.Rahmonqulova “Pedagogika nazariyasi va tarixi” “Fan va etxnologiya”

- Tarbiyaning o‘quvchilar ruhiyati va yosh xususiyatiga mosligini hisobga olish;
- O‘quvchilarning aqliy-ma’naviy munosabatlari ta’sirini o‘rganish;
- O‘qituvchi-tarbiyachining savodxonlik darajasi, san’at va mahorati;

**Ma’naviy-axloqiy sifatlarining qaror topishi** quyidagi umumiy mazmun asosida ro‘y beradi:

- O‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy darajasi ijtimoiy munosabatlar jarayonida, uning jamiyat, atrof-muhit va tabiatga bo‘lgan yondashuvida namoyon bo‘ladi;
- O‘quvchilarning ma’naviy-axloqiylik darajasi jamiyatning ijtimoiy-ma’naviy taraqqiyoti darajasiga bog‘liq;
- O‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy kamoloti obyektiv va subyektiv shart-sharoitlarlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi asosida tashkil etiladigan uzluksiz, tizimli ta’lim-tarbiyaning yo‘lga qo‘yilishi natijasida vujudga keladi;
- O‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy kamoloti ijtimoiy munosabatlarning yo‘lga qo‘yilishida ijobiy natijalarga olib keladi.
- Ma’naviyat – jamiyatning, millatning yoki ayrim shaxsning ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, ma’rifati, madaniyati, idrokini mujassamlashtiruvchi tushuncha. Ma’naviyat – inson madaniyatining asosiy negizi . Ma’naviyat – insonga ruhiy o‘ziq, quvvat beradi .
- Ma’naviy jihatdan mukammal, boy inson eng yuksak axloqiy fazilatga ega bo‘ladi. Bunday tarbiyaga ega bo‘lgan inson atrof-muhitga, insonga, jonvorlarga, o‘simpliklar dunyosiga nisbatan ongli munosabatda bo‘ladi.
- Bilmaslikdan ma’rifat sari, dunyo, olam haqidagi tasavvurlar, tushunchalar tomon siljish ma’naviyat yo‘lining qanchalik uzun va uzluksiz ekanligidan dalolat beradi. Bu ma’rifat yo‘li shunchalik so‘qmoqlarga boy ekanki, insoniyat haqiqat bekatiga yetib kelguncha juda ko‘p murakkab tafakkur va ruhiy «qal’a» larni qurishga, o‘zi qurgan «qal’a» larni buzib tashlash, yana boshqa tasavvur «qal’a» sini yaratishga to‘g‘ri kelgan. Insoniyat o‘z aqliy erkinligini kuchaytirgan sari ma’naviy erkinlikka erishishning mushkulligiga gi riftor bo‘laveradi »

Sh.Usmonova ma’naviyatning tarkibiy qismlarini namoyon qilishga urinib ko‘rgan:

- madaniy-ma’rifiy yuksaklik;
- ijtimoiy -didaktik taraqqiyot;
- falsafiy-pedagogik o‘sish;
- iyomon -e’tiqodning butligi ;
- milliy axloq-odob normalariga to‘la rioya qilish;

- ilm -ma'rifatli bo'lish;
- insonparvarlik, vatanparvarlik, xalqparvarlik, adolatparvarlik;
- milliy qadriyatlarga muhabbat;
- fidoiylik, mardlik, jasurlik , tashabbuskorlik;
- poklanish;
- dinga e'tiqodlilik;
- Vatan va xalq mustaqilligini doimiy ravishda himoya qilish va unga xizmat etish;
- ajdodlar va ularning merosiga chuqrur hurmat.

A.Otajonov o'z ishida ma'naviyat tushunchasiga quyidagi ta'riflarn keltirgan:

- Ma'naviyat – insonning botiniy va zohiriyligi olami ;
- Ma'naviyat – millat nishoni ;
- Ma'naviyat – inson qalbidagi nur;
- Ma'naviyat – odamning ruhiy va aqliy olamining majmui ;
- Ma'naviyat – jamiyatning, millatning yoki ayrim kishilarning ichki hayoti,
- ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idro kini mujassamlantiruvchi tushuncha;

Inson ruhiy olamidagi muayyan ijobiy ijtimoiy ahamiyat kasb eta oladigan fazilatlar ma'naviyat deb ataladi.

Milliy istiqlol g'oyasining bosh maqsadi xalqning buyuk kelajak va ulug'ver maqsadlar sari birlashtirish, mamlakat har bir fuqarosini yagona Vatan baxtsaodati uchun doimo mas'uliyat sezib, faoliyat ko'rsatishga chorlash, milliy qadriyatlarimiz, ajdodlar an'analariga munosib bo'lishga erishish, komil insonlarni tarbiyalashdan iboratdir.

Milliy qadriyatlar murakkab ijtimoiy-ruhiy tushuncha bo'lib, u millatning tili, madaniyati, tarixi, urf-odatlari, an'analarini, jamiki moddiy va ma'naviy boyliklarini iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy hayotning barcha tomonlarini qamrab oladi.

<sup>1</sup>Ma'naviyat o'z navbatida tarbiyani jarayonini samarali tashkil etishni taqo'zo etadi.<sup>1</sup> Ma'naviy axloqiy tarbiya tizimida ma'naviy-axloqiy his tuyg'ularini uyg'otishga rag'bat paydo qiluvchi tarbiyaviy ishlar tizimli tashkil etilgandagina samarali kechadi.

Yuqorida bayon qilinganlardan ko'rindik , ma'naviyat tushunchasining yagona, uzil -kesil ta'rifi yo'q. Unga har bir muallif o'z tabiatidan kelib chiqqan holda ta'rif bergan va har bir ta'rif qaysidir jihatdan to'g'ri bo'ladi. Ma'naviyat so'zining «ma'ni» bilan o'zakdosh ekanligi uni inson ichki olami, ko'zga ko'rinas tomon – ruhi, qalbi, ko'ngliga bog'laydi. U inson siyratini tashkil etuvchi keng ko'lamli tushuncha bo'lib, inson odob-axloqi , yaxshi-yomonligi, intellekt darajasi, tafakkur tarzi kabi ichki omillarni qamraydi.

<sup>1</sup> B.X.Xodjayev "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti"/ "Sano-standart" nashriyoti. Toshkent 2017 yil 156-bet

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch". T.: "Ma'naviyat" nashriyoti. 2008 y 10 b
2. Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-sun qarori (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi 03.01.2020-y., 09/20/1059/4265-sun, 19.06.2020-y., 09/20/391/0777-sun)
3. B.X.Xodjayev "Umumiyy pedagogika nazariyasi va amaliyoti"/ "Sano-standart" nashriyoti. Toshkent 2017 yil 156-bet
4. R.Mavlonova, N.Vohidov, N.Rahmonqulova "Pedagogika nazariyasi va tarixi" "Fan va etxnologiya" nashriyoti. Toshkent 2010-yil 324-bet.